

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

AHADOV MA’MURJON SHARIPOVICH

**YANGI RENESSANS PEDAGOGIKASI SHAROITIDA KIMYO
TA’LIMIDAGI UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIKNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертаций доктора наук (DSc)

Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Ahadov Ma'murjon Sharipovich

Yangi renessans pedagogikasi sharoitida kimyo ta'limidagi uzviylik va uzluksizlikni rivojlantirish metodikasi.....3

Ахадов Маъмуржон Шарипович

Текст научной работы на тему «Методика развития целостности и преемственности в химическом образовании в условиях педагогики нового Ренессанса»29

Akhadov Mamurjon Sharipovich

Methodology of development of coherence and continuity in chemistry education in conditions of new renaissance pedagogy 57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works61

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

AHADOV MA’MURJON SHARIPOVICH

**YANGI RENESSANS PEDAGOGIKASI SHAROITIDA KIMYO
TA’LIMIDAGI UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIKNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.DSc/Ped512 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.uzicps.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Ixtiyarova Gulnora Akmalovna kimyo fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Nizomova Saida Odilovna pedagogika fanlari doktori Sultonov Marat Mirzayevich kimyo fanlari doktori, professor Xudoyqulov Xol Jumayevich pedagogika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023-yil «24» avgust soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4 uy). Tel.: (99871) 246-67-35/faks:(99871)246-02-24, e-mail:chem012@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin(122- raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4 uy. Tel: (99871) 246-67-35.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «12» avgust kuni tarqatildi.

(2023-yil «11» avgustdagi 9- raqamli reyestr bayonnomasi).


Z.A. Smanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
kimyo fanlari doktori, professor
M.A. Mahkamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
kimyo fanlari doktori, professor
N.X. Qutlimurotova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, kimyo fanlari doktori, dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ta'lim istiqbolli, integratsion, xalqaro andozalarga mos barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan tizimli xalqaro ta'lim konsepsiyasida «Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish» dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Ta'limdagi uzviylik va uzluksizlikni rivojlantirish, o'quv jarayonini xalqaro andozalarga mos dasturlar asosida tayyorlangan zamonaviy darsliklar bilan olib borish, ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va mamlakatimizda joriy etish, fanlararo integratsiya va sinflar kesimida davriylikka to'liq rioya qilgan holda uzviylikni ta'minlashdan iborat. Xususan, bitiruvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash, o'z bilim va ko'nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o'rgatish, pedagogik innovatsiyalarni keng miqyosda qo'llash taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi.

Dunyo hamjamiyatida ta'lim sohasining transformatsiyalashuvi va jamiyatda raqobatbardosh kadrlarning yetishib chiqishi, raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, mobil texnologiyalar, zamonaviy ta'lim metodlardan foydalanib ta'limdagi uzviylik hamda uzluksizlikni ta'minlash metodikasini takomillashtirishga doir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Uzluksiz ta'limda ta'lim oluvchilarning mustaqil bilish faoliyati samaradorligini oshirish va mehnat bozori talablari darajasidagi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, kimyo ta'limini nazariy-amaliy va metodologik imkoniyatlarini modellashtirish hamda takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonini tezlashtiruvchi hamda uning kasbiy salohiyatini oshirib boruvchi mexanizm hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da¹, 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqish, yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish, yangi metodikalar bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun maxsus video-darslar yaratish imkoniyatini ochib beradi. Shuningdek, kimyo darslarini hayotiy voqeliklar bilan boyitish, bo'lajak kimyo o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashga imkon beruvchi zamonaviy ta'lim resurslaridan foydalanishga yangi imkoniyatlar ochib beradi.

Bu esa yangi renessans pedagogikasi sharoitida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kompetensiyaviy, integratsion, kognitiv yondashuvlar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirib, kimyo ta'limidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-sonli «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 21-iyundagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi // <https://lex.uz/ru/docs/5841063>.

«Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-289-sonli, «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2020-yil 29-sentabrdagi O'RQ-637-sonli «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884 sonli «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-sonli «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmon va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Ta'limdagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda bo'lajak o'qituvchilar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha jahonning yetakchi oliy o'quv yurtlari, ilmiy markazlarida, jumladan, University of Wisconsin-Madison, Harvard University (AQSH), University of Edinburgh, Chiang Mai university (Yaponiya), University of Belgrade (Serbiya), Northeast normal of university (Xitoy), University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Newcastle university (Avstraliya), Isfahan University of Technology (Eron), Moskva davlat universiteti (Rossiya)da bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy tadqiqot faoliyati, dunyoqarashi, pedagogik, kasbiy va metodik tayyorgarligi, fanlararo integratsiyadan foydalanish va yangi innovatsion muhitni shakllantirish jarayonlari (Yaponiya, Chiang Mai university); bo'lajak o'qituvchilarining o'z ustida ishlash ko'nikmasi, o'zini o'zi nazorat qilish va talabalarning yakuniy malakaviy ishlarini bajarilishini diagnostika qilish asosida diagnostik kompetentlik shakllantirilgan (Xitoy, Northeast normal of University); STEAM ta'limini joriy qilish, o'qituvchilarni tayyorlashning metodologik asosini rivojlantirish ishlab chiqilgan (Buyuk Britaniya, University of Cambridge); integratsiyalashgan ta'lim dasturlaridan foydalanib o'qituvchilar tayyorlash va malakasini oshirish asosida ta'lim samaradorligiga erishilgan (Avstraliya, Newcastle university); oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy metodlar yordamida kompleks ta'sir ko'rsatish, o'qitishda

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro tadqiqotlar sharhi <https://www.wisc.edu/>; <https://www.harvard.edu/>; <https://www.ed.ac.uk/>; <https://www.cmu.ac.th/en/>; <https://www.bg.ac.rs/en/>; <https://en.nenu.edu.cn/>; <https://www.cam.ac.uk/>; <https://www.ncl.ac.uk/> <http://english.iut.ac.ir/>; <https://www.msu.ru/> kabi manbalar asosida ishlab chiqilgan.

ta'limiy kontentlardan foydalanib ta'lim rejalashtirilgan (Eron, Isfahan university of technology); ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishda internet texnologiyalarini qo'llash, fanlararo integratsiya, texnik va pedagogik bilimlar integratsiyasini, pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasini takomillashtirish masalalari (Rossiya, MDU) tadqiq qilingan.

Bo'lajak o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqot ishlari bugungi kunga kelib jahonning ilg'or ilmiy markazlari tomonidan tadqiq etib kelinmoqa. Birgina kimyo ta'lim nazariyasi va amaliyotining uyg'unligini ta'minlash; kimyo fanidan natural ko'rgazmali qurollar va virtual laboratoriyalar yaratish, kimyo ta'limida 3D texnologiyalarni axborot-metodik ta'minotini yaratish; bo'lajak kimyo o'qituvchisini kasbiy intellektual takomillashtirish, ta'limni kasbga yo'naltirgan holda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, kimyo o'qituvchilari uchun ssenariylashtirilgan dars kataloglarini yaratish orqali uzliksiz kimyo ta'limda uzviylikni tashkil etishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Uzluksiz ta'lim tizimida kimyo fanini o'qitishni takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar jumlasiga, X.T.Omonovning kimyo ta'limining falsafiy-pedagogik asoslari va uni takomillashtirish, S.A.Nizomovning kimyo o'qitish samaradorligini oshirishda multimedia texnologiyasidan foydalanib, kvalimetrik yondashuv asosida tahlil qilish metodikasi, E.U.Eshchanovning organik kimyoni o'qitishda o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini tashkil etish, F.M.Alimovning ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak kimyo o'qituvchilarini loyihaviy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish, G.A.Ixtiyarovning Umumiy kimyo, Kolloid kimyo, Organik kimyo, Kimyoviy texnologiya fanlarini sifat va samaradorligini oshirishda noan'anaviy elektron darslik hamda o'quv qo'llanmalar yaratish va undan foydalanish bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari, elektron axborot-ta'lim resurslari, dasturiy qobiqlarni yaratish, ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari mamlakatimiz olimlaridan A.Abdudodirov, U.Begimqulov, N.I.Tayloqov, Q.T.Olimov, F.M.Zakirova, A.G'.Hayitovlarning ishlarida elektron darsliklar va elektron qo'llanmalar yaratish yo'llari, ularga qo'yiladigan talablar, ta'lim tizimida elektron axborot reasurslari tushunchasi I.A.Allayarov, masofaviy ta'lim, uni tashkil qilish, sun'iy intellekt, ekspert tizimlar, bilimlar ombori, bilimlar omborini boshqarish tizimlari haqidagi fikrlar S.M.Nadjimova, L.T.Zaylobov, umumiy kimyoni o'qitishda foydalaniladigan axborot texnologiyalari vositalarining imkoniyatlari, didaktik funksiyalari ularni amalga oshirish yo'llarining belgilanishi ta'lim samaradorligini oshirishga zamin yaratishi haqida aytilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanishi, uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga sezilarli darajada hissa qo'shgan MDH davlatlarida L.M.Smorgonskiyning kimyo fani orqali o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va ularni tarbiyalash muammosiga bag'ishlangan asarlari, K.Ya.Parmenovning mamlakatimiz va xorijiy maktablarda kimyo o'qitish tarixi hamda maktab kimyoviy tajribasi haqida, D.M.Kiryushkin talabalarning mustaqil

ishi va kimyo o'qitishda fanlararo aloqalar sohasida, D.A.Epshteynning o'rta maktabda kimyoviy ishlab chiqarishni sxemalar, jadvallar, modellar va filmlar yordamida o'rganishning samarali usullari haqida, A.D.Smirnov va G.I.Shelinskiylarning kimyo o'qitishning ilmiy asoslari hamda maktabda kimyoning boshlang'ich kursini o'rganish metodikasi, maktab kimyoviy eksperimenti, kimyodan maktab darsliklari va o'qituvchilar uchun kimyo o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv qo'llanmalari yaratish, shuningdek, I.L.Drijun, N.E.Kuznetsova, I.M.Titova, A.A.Makarenya, T.N.Rannimova, E.G.Zlotnikov, G.V.Nekrasovalar kimyo metodologiyasining dolzarb muammolari, kimyoviy ta'limning ilmiy-pedagogik tadqiqotlari bo'yicha ishlar amalga oshirilgan.

Xorijlik tadqiqotchilar Z.L.Berge, A.Bates, J.Bergmann, J.S.Daniel, A.Dumont, B.Holmberg M.Klarin, R.S.Tuningalarning ishlarida masofaviy ta'lim vositasida umumiy va oliy kasbiy ta'limni optimallashtirish hamda modernizatsiyalash konsepsiyasining asosiy qoidalariga bag'ishlangan muammolarni tadqiq etishgan.

Pedagog olimlar tomonidan ta'limidagi uzviylik va uzluksizlikni takomillashtirish muammosi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, yangi renessans pedagogikasi sharoitida kimyo ta'limidagi uzviylik va uzluksizlikni rivojlantirish tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqotlari rejasining A-OT-2021-133 «Kimyo fanidan 3D texnologiyalariga asoslangan interaktiv qo'llanma yaratish» (2020-2021-yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yangi renessans pedagogikasi sharoitida kimyo ta'limidagi uzviylik va uzluksizlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kimyo ta'limidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashning pedagogik kompetentligini rivojlantirishda didaktik parametrlari mazmuni loyihaviy, metodik-texnik, pedagogik imkoniyatlarni tahlil etish;

ssenariylashtirilgan dars kataloglari orqali bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

yangi renessans pedagogikasi sharoitida bo'lajak kimyo o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish;

yangi renessans pedagogikasi sharoitida kimyo darsliklari va o'quv dasturlarini o'quv faoliyatiga yo'naltirilgan metodik, kompetensiyaviy, intellektual mezonlar asosida takomillashtirish;

kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirish istiqbollarini, innovatsion faoliyatini takomillashtirish texnologiyasi va elektron resurslar bazasidan foydalanishning integrativ modelini aniqlash;

kimyo darslarining tarbiyaviy ahamiyatini bo'lajak kimyo o'qituvchilarning motivatsion, kognitiv, kreativ kompetensiyalari asosida aniqlashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kimyo ta'limidagi uzviylik va uzluksizlikni yangi renessans pedagogikasi sharoitida takomillashtirish jarayoni hisoblanadi. Tajriba-sinov ishlariga Navoiy davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat pedagogika universitetidan kimyo o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishining 669 nafar respondent-talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti pedagogika oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida bo'lajak kimyo o'qituvchilarini yangi renessans pedagogikasi sharoitida kimyo ta'limida uzviylik va uzluksizlikni rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalarini metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy usullar – dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy, metodik adabiyotlar va elektron manbalar, tadqiqot muammosi bo'yicha me'yoriy-metodik va qonunchilik hujjatlari; empirik usullar – anketa so'rovnomalari, suhbat o'tkazish, loyihalash, modellashtirish, ekspert baholash, kuzatish, test, pedagogik eksperiment; matematik usullar – ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik-statistik tahlil usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy-metodik faoliyatga tayyorlashning pedagogik kompetensiyalari tuzilmasini (maxsus, metodik, axborot-kommunikativ, prognostik) motivatsion, kognitiv, faoliyatga doir komponentlari asosida kimyo o'qitish jarayonini individual ta'lim trayektoriyasi hamda vertikal integratsiyasini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish bosqichlari (motivatsion, kreativ, integrativ) hamda intellektual faoliyatning tarkibiy asoslarining natijaviylik ko'rsatkichlari (ssenariylashtirilgan dars kataloglarini yaratish) barqarorligini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

yangi renessans pedagogikasi sharoitida kimyo ta'limidagi uzviylik va uzluksizlik, o'quv faoliyatiga yo'naltirilgan metodik, kompetensiyaviy, intellektual mezonlar, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, refleksiv omillarning (ilmiy-pedagogik, didaktik, texnologik, diagnostik va metodik) metodik kompetentligi yangi kimyo darsliklari va o'quv dasturlari asosida takomillashtirilgan;

yangi renessans pedagogikasi sharoitida bo'lajak kimyo o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish, shaxsiy-motivatsion yo'nalganligiga ustuvorlik berish omillarini o'zaro samarali optimallashtirish asosida rivojlantirilgan;

bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatini yaratish texnologiyasi va elektron resurslar bazasidan foydalanishning integrativ modeli maqsadli-motivatsion, konseptual-maqsadli, jarayonli-kreativ, integrativ-kognitiv, natijaviy-baholash komponentlari hamda modifikatsion faoliyatni ta'lim jarayoniga olib kirish asosida takomillashtirilgan;

kimyo darslarining tarbiyaviy maqsadi ajdodlar namunasi va o'g'itlari (kimyogar olimlar hayotdan esselar, buyuk allomalarimizning ibratli o'g'itlari, o'quv materiallarida buyuk kimyogar olimlarning «sitalari»dan foydalanish, idrokni rivojlantirish uchun, kimyoviy bilimlarni kundalik hayot bilan bog'laydigan ko'ngilochar hikoyalar) orqali fanga oid qiziqarli ma'lumotlarni o'zlashtirish dinamikasi kreativ yondashuvli faoliyat adekvatligi asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

Yangi renessans pedagogikasi sharoitida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik, kasbiy faoliyatga tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari, kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv faolligi, innovatsion qiziqishlarini rivojlantirish, bo'lajak kimyo o'qituvchilari uchun ssenariylashtirilgan dars kataloglari bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi, hamda tadqiqotga mos holda, «Kimyo ta'limidagi uzviylik va uzluksizlikni takomillashtirish metodikasi» nomli monografiya, «Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar» va «Anorganik kimyo» darsliklari amaliyotga tatbiq etilgan.

Bo'lajak kimyo o'qituvchisining elektron ta'lim muhitidan foydalanib, metodik tayyorgarligini takomillashtirishga imkoniyat beruvchi masofali shaklda veb-sayt (<https://edu-chem.uz/>) yaratilgan. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari (ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar talabalarning fikrlash qobiliyatini oshirish, faoliyatli-shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini joriy etish tamoyillari) mazmuni takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, empirik o'rganishlar asosida keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kimyo ta'limidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda ssenariylashtirilgan dars kataloglarini yaratish, zamonaviy kimyo darsliklarini yaratishning metodikasi, kimyo o'qitish metodikasi fanlarini o'rgatishga doir metodikaning mazmuni ochib berilgani, metodik tayyorgarlikni takomillashtirishning tamoyillari va darajalarini aniqlashda, bo'lajak kimyo o'qituvchisida bilim, ko'nikma, malaka bilan birga metodik kompetensiyalarni shakllantirish, o'z kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashadigan mutaxassis kadrlar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan darslik, monografiya, ssenariylashtirilgan dars kataloglari, veb-saytlar, elektron ta'lim vositalari, bo'lajak kimyo o'qituvchisining butun pedagogik faoliyatini modifikatsion tashkil etish va bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini rivojlantirish yo'llari ko'rsatilganligi hamda pedagogik amaliyotda

joriy qilinganligi jamiyatimiz uchun kimyo ta'limini o'qitish sohasida malakali pedagog kadrlarni tayyorlashga hissa bo'lib qo'shiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi renessans pedagogikasining ta'limdagi uzviylik va uzluksizlikni rivojlantirish sharoitida bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi tashkiliy, metodik-texnik, pedagogik-psixologik omillarni aniq va kognitiv vaziyatlarda diversifikatsion tashkil eta olishi, ssenariylashtirilgan dars kataloglarini yaratishga asoslangan «Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar» nomli darslik yaratilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18- avgustdagi 356-sonli buyrug'i bilan berilgan guvohnoma). Natijada, bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik parametrlari va zaruriy shart-sharoitlar mazmunini takomillashtirish imkonini bergan;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmi komponentlari o'z ustda mustaqil bilim olish hamda kimyo ta'limda o'qitilayotgan fanlar bo'yicha yangiliklarni o'zlashtirish dinamikasini hisobga olib ijodiy yondashuvli faoliyatini individuallashtirish asosida «Anorganik kimyo» nomli darslik (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19- iyuldagi 233-sonli buyrug'i bilan berilgan guvohnoma) ishlab chiqilgan. Natijada, bo'lajak kimyo o'qituvchilarining nazariy olgan bilimlaridan amaliy faoliyatiga foydalanishlari, kichik PISA tadqiqotlarida metodik faoliyatda tayyorgarliklarini rivojlantirishga ko'maklashgan;

bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini, o'zlashtirishini nazorat qilish, foydalanuvchilar va ular o'rtasida ma'lumot almashinish, ijodiy masofaviy-kognitiv bajarish, yangi tasavvurlar, g'oya va fikrlarni o'zida qamrab olgan elektron veb-sayt yaratilgan, unda o'zini o'zi kasbiy-shaxsiy rivojlantirish, pedagogning shaxsiy-motivatsion yo'nalganligiga ustuvorlik berish omillarini o'zaro samarali optimallashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-dekabrda 89-02-954-sonli ma'lumotnomalari). Natijada, bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kimyo ta'limidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda yangi renessans pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanib ta'limni tashkil etishni takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, 2 ta darslik, 1 ta elektron darslik, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 10 ta Respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 245 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlarga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Yangi renessans pedagogikasi sharoitida kimyo taʼlimida uzviylik va uzluksizlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida taʼlimdagi uzviylik va uzluksizlikni taʼminlashning huquqiy hamda nazariy asoslari, taʼlimi rivojlangan ilgʻor xorijiy mamlakatlar kimyo taʼlimidagi uzviylik va uzluksizlikni rivojlantirish tajribasidan foydalanishning samaradorligi masalalari yoritib berilgan.

Taʼlim mazmuni uzviyligi-taʼlim berish jarayonining har bir bosqichi avvalgisining negizida yuzaga kelganligi, uning ichki tarkibini va sharoitini tashkil etganligi sababli barcha bosqichlar oʻrtasida oʻzaro aloqa mavjud boʻlib, nafaqat shakl, balki mazmun jihatidan amalga oshirilishi uchun yangi mavzuda takrorlanishlarning boʻlmasligi, mazmunan bir xil mashqlarning mexanik takrorlanishlariga yoʻl qoʻymaslik, aksincha, mavzuning soddadan-murakkabga tomon tamoyili asosida rivojlanib borishiga erishishdan iborat.

Keying yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi Oʻzbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori taʼlim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Biz taʼlim islohotlari orqali Oʻzbekistonda yangi uygʻonish davri, yaʼni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni oʻzimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.

Bugun aniq va tabiiy fanlarni oʻqitish metodikasi murakkab tuzilgani, ularda nazariy bilimlar amaliyot bilan bogʻlanmagani, oʻquv dasturlarida uzviylik yoʻqligi, darsliklarning mazmuni va sifati qoniqarsiz ekani haqli eʼtirozlarga sabab boʻlmoqda. Amaldagi taʼlim standartlari hamda oʻquv dasturlari, asosan, oʻquvchini taʼlimning navbatdagi bosqichiga tayyorlashga yoʻnaltirilgan boʻlib, ularni erkin fikrlash va mustaqil hayotga tayyorlash masalalasi eʼtibordan chetga qolmoqda.

Shuningdek, umumtaʼlim maktablarida darslik va oʻquv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan oʻtkazish tizimi mavjud emas. Maktab darsliklarini yaratish va chop etishni tartibga solish masalasi ham dolzarb boʻlib qolmoqda.

Yangi Renessansda umumtaʼlim maktablarining tabiiy fanlar jumlasiga kiradigan «kimyo» fanidan oʻquvchilar uchun yangi darsliklar yaratish, oʻquv dasturlariga uzviylikni va uzluksizlikni taʼminlash, darsliklardan olgan nazariy bilimlarini amaliyot bilan uygʻnligini taʼminlash, oʻquvchilarni erkin fikrlashga undovchi topshiriqdan foydalanish va mustaqil hayotga tayyorlash masalalarini dissertatsiya ishida keltirib oʻtdik.



Ta'lim mutaxassisliklari kasbiy kompetentligiga doir ijtimoiy va iqtisodiy talablarini hisobga olgan holda uzluksiz pedagogik ta'lim mazmuni va maqsadlarini yangilash.



Fanni o'qitishda muammoli tadqiqot tamoyillari, faollik, jamoaviy ta'lim olish strategiyasi asosida ta'lim jarayoni shakllari, metodlari, vosita va texnologiyalarini modernizatsiya qilish.



Axborot texnologiyalar rivojlanayotgan (3D, virtual ta'lim, SMART ta'lim) sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi vositalarini takomillashtirish hamda pedagogik kasb mavqeini oshirish.



Psixologik-pedagogik ilm va samarali ta'lim amaliyoti sub'ektlari ta'lim imkoniyatlarini integrallash asosida pedagogik ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan rivojlantirishning klaster modeliga o'tish.



Hozirgi zamonoviy ta'limda psixologik-pedagogik fanlar, (4+2, PISA, STEAM) ta'lim amaliyoti, uzluksizlik va izchillik tamoyillarining dolzarb muammolarini hisobga olgan holda yuqori malakali ilmiy kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish.

1-rasm. Ta'lim tizimida uzluksizlik va uzviylikni rivojlantirishning asosiy vazifalari.

Uzluksiz ta'lim jarayonini takomillashtirishning eng muhim tamoyillaridan biri uning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ekanligi, ta'lim faoliyati subyekti potensialiga qaratilganligi, uning individualligi va o'z-o'zini namoyon eta olishiga asoslanganligidir.

Ta'limning mazmunini o'quv dasturlari belgilar ekan, ularning ta'lim turlari o'rtasidagi bog'liqligi, fanlararo, sinf-kurslararo uzviy bo'lishini ta'minlash muhim. Ta'limdagi keng ko'lamlı islohotlarda nafaqat shaklan o'zgarish bilan birga sifatni ta'minlovchi mazmun o'zgarishini qilishimiz kerak. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni belgilab oldik.

➤ **uzluksiz ta'lim tizimi uchun fanlar kesimida konsepsiyalar ishlab chiqish;**

➤ **fanlar kesimida barcha ta'lim turlarida o'tiladigan mavzular bo'yicha tahliliy-qiyosiy jadvallar tayyorlash;**

➤ **kimyo fanidan maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalari uchun uzviyligi ta'minlangan o'quv dasturlarini tayyorlash;**

➤ **xorijiy tajribalar o'rganish, uzviylik, uzluksizlik mantiqiy ketma-ketlik, izchillik va tizimlilikka e'tibor berish.**

Dissertatsiyaning «**Yangi renessans pedagogikasi orqali kimyo ta'limida uzviylik va uzluksizlikni rivojlantirish modernizatsiyasi**» deb nomlangan ikkinchi bobida kimyo ta'limida yangi o'quv adabiyotlar uzviylikni rivojlantirishning komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlari, axborotlashtirish sharoitida bo'lajak kimyo o'qituvchilarini mustaqil ta'lim jarayoniga tayyorlash metodikasi, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarga (3D, Aqilli kimyo laboratoriyasi) virtual ta'lim texnologiyalardan foydalanish tendensiyalari hamda kimyoviy eksperiment-kimyo o'qitishning o'ziga xos vositasi ekanligi xususida fikr yuritilgan.

Bugungi o'quvchilarga zamonaviy talablarga javob bera oladigan o'qituvchilarsiz, laboratoriyalarsiz, kitoblarsiz xalqaro darajadagi standartlarga mos ta'lim bermasdan, ertaga buyuk kelajakni kutish – eng katta xatodir.

Shuning uchun biz tadqiqotimizda, eng avvalo, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-metodik faoliyatga tayyorlash ularni o'quv jarayoniga qurollantirish maqsadida kimyo darslarini ssenariylashtirilgan dars kataloglari orqali o'qitish metodikasini ishlab chiqdik. 2-rasm.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilari va kimyo fani o'qituvchilari maktabda dars mashg'ulotlarini samarali tashkil etish hamda o'tishda, avvalo, izlanish, bilim, mehnat, muomala, pedagogik-psixologik va o'ziga xos ravishda darslarni sahnalashtirishni talab qiluvchi jarayon hisoblanadi.

Senariylashtirilgan kimyo darslari deganda, kimyoni o'quvchilarga hayotiy ehtiyoj asosida biror ishni, aniq maqsadni amalga oshirish, ro'yobga chiqarish, puxta o'ylab foydalaniladigan vosita, usul, choralar majmui tushuniladi.


Dars katalogi-darsning texnologik xaritasi keltiriladi, undan bir soatlik dars uchun qanday bilimlar, qiziqarli ma'lumotlar, qanday noan'anaviy innovatsion ta'lim metodlari, interaktiv o'yinlardan samarali foydalanish, turli xildagi mavzuga oid rasmlar, karikaturalar bilan boyitilgan risoladir. Dars katalogidan o'quvchi qanday bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyaga ega bo'lishi haqida bilib oladi va darsga kirishga oshiqadi.

Bir xillik insonni zeriktirgani kabi har safar bir xil dars muhiti o'quvchilarni ham zeriktirishi tabiiy hol. Bu esa ularning ushbu fanga nisbatan e'tiborini susaytiradi. Buni oldini olishning yagona yo'li esa o'zgacha dars ssenariysini tashkil qilishdir.

Har darsingizda o'quvchilarni mutlaqo e'tiborini tortadigan yangi «nimadir» (kimyo va hayotiy kompetensiyalar) tayyorlab qo'ying. Yoki darslarda xilma-xil, yangi va qiziqarli ma'lumotlar, noan'anaviy va interaktiv ta'lim metodlari, natural ko'rgazmali vositalar, virtual laboratoriyalardan foydalaning. Bu dars samarasini va o'quvchilar aktivligini maksimal oshishiga yordam beradi.

Bo'lajak kimyo o'qituvchisi dars ssenariylarini tuzishning tarkibiy tuzilmasi quyidagilardan iborat:

- ✚ Mavzuni o'tishdan maqsad;
- ✚ Mavzu yuzasidan kompetensiya vazifasi;
- ✚ Mavzu yuzasidan o'rganiladigan muammo tafsiloti;
- ✚ Mavzu yuzasidan muammoli vaziyatlarning tafsiloti.



2-rasm. Kimyoni o'qitishda ssenariyga asoslangan darsning samaradorlik modeli.

Kimyo o'qituvchilari uchun ssenariylashtirilgan darslar kataloglari doirasida quyidagilar amalga oshirilgan:

✚ Dars kataloglari «<https://edu-chem.uz/>» saytida muntazam joylashtirib boriladi va bundan respublikamizdagi barcha kimyo o'qituvchilari foydalanishlari mumkin. Dars kataloglarida yangi bilimlar va kompetensiyalar bilan doim o'zgartirib boriladi hamda shu sayt foydalanuvchilariga taqdim qilingan;

✚ Yosh kimyo o'qituvchilari uchun «Dars kataloglari»ning yaratish uslubi berilgan;

✚ Kimyo darslari hayotiyashtirilgan;

✚ Kimyo darslari qiziqarli fakt va dalillar bilan boyitilgan;

✚ Kimyo darslari PISA tadqiqotlariga yo'naltirilgan;

✚ Kimyo darslarida fanlararo integratsiya yo'lga qo'yilgan;

✚ Kimyodan dars o'tishning zamonaviy metodikasi yaratilgan;

✚ Ekstern ta'lim asosida kimyoni o'qitish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Uzviylik tushunchasi uzluksiz ta'lim tizimining har bir turida o'quvchilar bilimi, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni xarakterlaydi.

Biz tadqiqotimizda bo'lajak kimyo o'qituvchilarida kimyo darsliklaridagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda yangi o'quv adabiyotlarini yaratish metodikasini tavsiya qilingan. Bunda kichik maktab yoshidan boshlab 7-11-sinflarda kimyo fanidan yangi o'quv adabiyotlarini loyihasini taqdim etilgan:

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (5-sinf) uchun «3D interaktiv kimyo» kitobi taklif etilgan, bunda uzluksizlikni ta'minlash maqsadida 6-7-sinflar uchun o'quvchilarning kimyo fanidan tasavvurga ega bo'lishlari, kichik tadqiqotlarni mustaqil olib borishlari, uchun «Intelektual kimyo» kitobi taklif etilgan.


Intellektual kimyo o'quv adabiyoti ikki qismdan iborat bo'lib birinchi qismida nazariy ma'lumotlar ikkinchi qismida esa nazariy ma'lumotlar asosida laboratoriya mashg'ulotlari, kichik PISA tadqiqotlari, bilimlarni mustahkamlash uchun interaktiv mashg'ulotlar, nostandart topshiriqlar berilgan.

Umumiy o'rta ta'limda Kimyo fanidan uzluksizlik va uzviylik tamoyilini ta'minlash maqsadida 8-sinf o'quvchilari uchun «Elementlar olamiga sayohat» nomli ikki qismli o'quv adabiyotini tavsiya qilingan. Birinchi qismda o'quvchi D.I.Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy jadvalidagi 118 ta elementlar haqida eng qiziqarli ma'lumotlar, kashf etilish tarixi, fizik-kimyoviy xossalari, xalq xo'jaligidagi ahamiyati, tibbiyotda ishlatilishi kabi bilimlarni QR-kod orqali videolavhalarni ko'rishlari va audiolarni eshitishlari mumkin bo'ladi.

Shuningdek, o'quvchilar o'quv adabiyotining ikkinchi qismida kimyoviy elementlarning nazariy ma'lumotlari asosida olgan bilimlarni mustahkamlashga doir nostandart topshiriqlar, assesmentlar, PISA tadqiqotlariga doir topshiriqlarni bajaradilar.

9-10-sinf o'quvchilari uchun «Organik kimyo» o'quv adabiyoti 2 qismga bo'lib o'rganiladi, o'quv adabiyoti mavzulari loyihasi dissertatsiyada berilgan.

Mazkur «Organik kimyo» o'quv adabiyotida kimyoning eng ahamiyatli bo'lgan bo'limi – organik kimyoni o'rganamiz.



3-rasm. Bo'lajak kimyo fani o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyatini tashkil etish modeli.

O'quv adabiyotining ikkinchi qismi qismi topshiriq va mashqlardan iborat. Ular nafaqat olingan nazariy bilimlarni tekshirish, balki ularni faol qo'llash

maqsadida berilgan. Tajribalarning aksariyati hayotiy tadqiqotlarga asoslangan. Inson uchun eng qiziqarli va ahamiyatli fanlardan biri – organik kimyo fanini o‘rganish o‘quvchilarni tadqiqotchilik kompetensiyalarini hosil qiladi.

11-sinf o‘quvchilari uchun «Umumiy kimyo bilimlari» o‘quv adabiyoti loyihasi berilgan bo‘lib, bunda asosiy e‘tibor bitiruvchilarni oliy o‘quv yurtlariga jalb qilish va kirish imtmhonlariga tayyorgarligini oshirish maqsadida yangi darslik, o‘quv qo‘llanmalari yaratish muhim ahamiyatga ega.

Kimyoviy eksperimentning muhim funksiyalari – ta’lim, tarbiya va rivojlanishdan iborat bo‘lib, jumladan, xotira, fikrlash va irodaning rivojlanishini ham o‘z ichiga oladi. Bulardan tashqari, kimyoviy eksperiment –informatsion, evristik, kriterial, korrektlovchi, tadqiqiy, umumlashtiruvchi va dunyoqarashga oid ba’zi xususiy funksiyalarni ham bajaradi. Dars jarayonida kimyoviy eksperiment nafaqat faktlarni aniqlashga, balki juda ko‘p kimyoviy tushunchalarning shakllanishiga ham yordam beradi. Shularni hisobga olgan holda «Qiziqarli tajribalardan» dars jarayonida foydalanishning dolzarbligi hamisha yuqori deb aytish mumkin.

Tadqiqotda kimyo darslarini qiziqarli va kompetensiyalarga boy qilib tashkil qilish yuzasidan nostandart laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasi tavsiya qilingan:

«Kamalak», «Kimyoviy svetafor», «Kimyoviy lava», «Yonuvchi ko‘pik», «Ko‘rinmas siyoh», «Suv ostida rangli yomg‘ir», «Yashil alanga», «Sun‘iy qor hosil qilish», «Filning tish pastasi». Bu tajribalar orqali kimyo darslarini yuqori samaradorlikda tashkil etish va ta’lim sifatini oshirishga erishilgan.

Dissertatsiyaning «**Kimyo ta’limidagi uzviylik va uzluksizlikni rivojlantirishning amaliy- texnologik tizimi**» deb nomlangan uchinchi bobida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilariga ilg‘or xorijiy tajribalardan (PISA, STEAM) foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish modeli, malakaviy pedagogik amaliyotda kimyo ta’limining innovatsion kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish texnologiyasi, kimyoda ekstren ta’limni joriy etish metodikasi orqali kimyo ta’limidagi uzviylik va uzluksizligini takomillashtirish metodikasi berilgan.

Bugungi kunda kimyo o‘qituvchilari oldida zamonaviy kimyo fanini yangi renessans pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalangan holda tashkil qilish, ta’limini yangicha kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirish va uni ta’lim jarayoniga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. O‘quvchilarga kimyoviy bilimlarni imperativ bilim berish (tabiiy jarayon va hodisalarga bog‘liqlikka oid bilimlar) – ilmiy bilim olishda turli metodlarni qo‘llay bilish.


Kimyo ta’limida PISA tadqiqotida quyidagi kontekstlar mavjud.

- ◆ Inson salomatligida kimyo
- ◆ Tabiiy resurslar
- ◆ Kimyo va atrof muhit
- ◆ Kimyo va hayot faoliyati xavfsizligi
- ◆ Zamonaviy kimyo ilm – fan va texnologiyaning uzviyligi.

Umuman olganda, xalqaro PISA dasturining asosiy maqsadi rivojlangan davlatlar o‘rtasida kadrlar masalasiga kuchli e‘tibor berishni ko‘zda tutadi. Chunki

yuqorida dastur qo‘ygan talablar o‘quvchilarning bilimni kompetensiyaviy darajaga olib chiqishga qaratilgan.

Hayotimizda uchraydigan kimyoviy muammoli vaziyatlarni kimyoning qonun-qoidalari tarzda ifodalash – kimyoni tadbiiq qilish imkoniyatlarini aniqlash hamda vaziyatni kimyoviy yondashuv shaklda ifodalash, vaziyatning muhim jihatlarni aks ettiradigan kimyo model tuzish kabi qobiliyatlarni o‘z ichiga olgan.




4-rasm. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchisi kimyo ta‘limining innovatsion kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish texnologiyasi.

Tadqiqotimizda bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini metodik tayyorlash yuzasidan mualliflik modelini taklif qilamiz. Bu model yosh kimyo o‘qituvchisining pedagogik faoliyati mazmuni va usullari, o‘qituvchi shaxsning tajribasi, sifatleri, xususiyatlari, funksiyalari, kompetentligi va natijalardan iborat bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘quvchida bilim, ko‘nikma kompetensiyalarni takomillashtirish hamda yangilab borishdan iborat.

Mazku model asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo‘lish, kimyo fanini mustaqil o‘rganish, o‘z bilimidagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish, hamkorlik o‘rnatish, darslarni loyihalash hamda ularning nazoratini olib borishi mumkin.


Bo‘lajak kimyo o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda didaktik imkoniyatlarning kompleks va umumiy yo‘nalishlarining umumiy mazmuni, pedagogik-profilaktik imkoniyatlari tizimlashtirilishi kerak.

Kimyo fanidan nazariy darslarda ta‘lim beruvchilar, asosan, matnli va yordamchi vositalardan, misol uchun darsliklar va tarqatma materiallardan hamda texnik vositalardan foydalanadilar.



5-rasm. Bo'lajak kimyo o'qituvchisining zamonaviy yondashuvlar asosida metodik tayyorgarligini oshirish modeli.

Kimyo fanidan amaliy mashg'ulotlarda esa ko'proq tasvirli va real vositalardan, ya'ni eskiz, chizmalar, asbob-uskunalardan foydalanadilar. Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar jarayonlar va vazifalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.



6-rasm. Kimyo darslarida qo'llaniladigan ta'lim vositalari turlari.

Ta'limni rivojlantiruvchi saytlar, unda joylashtirilgan ta'lim mazmunini takomillashtirish fan bo'yicha muammoning qo'yilishi hamda yechimini hal qilishda qatnashuvchi har bir axborotning mazmuni, oqimi va hajmini belgilash asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagi tahlil asosida ishlab chiqilgan <https://edu-chem.uz/> sayti ham bo'lajak kimyo o'qituvchilari va yosh kimyo o'qituvchilarning metodik bazasini oshirishga ta'lim olish hamda mustaqil izlanish uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Mazkur saytnig afzalliklari shundan iboratki, bo'lajak kimyo o'qituvchisi saytga a'zo bo'lganida quyidagi elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mazkur platforma bo'lajak kimyo o'qituvchisining kimyo fanini o'qitishda ega bo'lishi lozim bo'lgan kompetensiyalarini tizimlashtiradi va bu orqali ta'lim jarayonidagi sifat hamda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining mazkur saytda ishlash uchun metodik tayyorgarlikka ega bo'lishi zarurligi, kasbiy va pedagogik kompetentlik yo'nalishlari, ularning ahamiyati va zamonaviy ta'limdagi o'rni tahlil etilgan.

Ishlab chiqilgan va ta'lim saytida e'lon qilingan har bir o'quv materiali hamda ssenariylashtirilgan dars kataloglari orqali axborot mazmuni unifikatsiya qilinganligiga alohida e'tibor berilgan (7-rasm).



7-rasm. <https://edu-chem.uz> sayti ishchi oynasi.

Bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda yuqoridagi kabi ta'lim mazmuni materiallarini ta'lim saytlarida joylashtirish va foydalanish uchun keng imkoniyat yaratish fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun hamda ta'limda sifat va samaradorlikni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan Yangi O'zbekistonda ekstren ta'limni joriy etish tufayli ko'p sonli onlayn va masofaviy ta'limni yo'lga qo'ysak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

